

Hamkorlikning yangi ufqlari



“O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida doktorantura ta‘limining sifatini oshirish” (UzDOC 2.0: Furthering the Quality of Doctoral Education Institutions in Uzbekistan) mavzusidagi Erasmus+ dasturi loyihasi bo‘yicha o‘tkaziladigan ilmiy seminarda ishtirok etish uchun O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti hamda institutning Nukus filialidan Gulnoza Aripova, Baxtiyor Yakubov, Umida Ibragimova, Aydos Otepbergenovlar 2019 yilning 1-4 iyul kunlari Namangan davlat universitetiga jo‘nab ketishdi.